H.S.Tojimuhamedov, T.S.Xoliqov,
N.H.Qutlimurotova, J.B.Tursunqulov

# ORGANIK KIMYO
## ORGANIK BIRIKMALARNI NOMLASH



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

KIMYO FAKULTETI

**H.S.Tojimuhamedov, T.S.Xoliqov,**
**N.H.Qutlimurotova, J.B.Tursunqulov**

# ORGANIK KIMYO
# ORGANIK BIRIKMALARNI NOMLASH

*Universitet talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

«ZEBO PRINT»
Toshkent-2021

UO‘K: 547(075.8)
KBK: 24.239ya73
O 64

**Organik kimyo organik birikmalarni nomlash** [Matn]: o‘quv qo‘llanma / H.S.Tojimuhamedov [va boshq.]. -Toshkent: «ZEBO PRINT, 2021. - 112 b.

**Tuzuvchilar:**
**H.S.Tojimuhamedov** – O‘zMU kimyo fakulteti organik kimyo kafedrasi proffesor v.b., k.f.n.
**T.S.Xoliqov** – O‘zMU kimyo fakulteti organik kimyo kafedrasi dosenti, k.f.n.
**N.H.Qutlimurotova** – O‘zMU kimyo fakulteti analitik kimyo kafedrasi dosenti, k.f.d.
**J.B.Tursunqulov** – O‘zMU kimyo fakulteti analitik kimyo kafedrasi o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:**
**M.R. Yuldasheva** – O‘zMU kimyo fakulteti organik kimyo kafedrasi dosenti, k.f.d.
**O.Y. Iskandarov** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dosent.

*Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi 237 - sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berildi.*

ISBN 978-9943-7920-8-1

## ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmada organik birikmalarni IUPAC qoidalariga muvofiq zamonaviy nomlashga doir materiallar berilgan. IUPAC nomenklaturasi tarkibiga kiruvchi tarixiy, ratsional, o'rinbosarli, additiv, subtraktiv, "a" nomenklatura qoidalari misollar bilan tushuntirilgan. Kraun efirlari, ba'zi tabiiy birikmalar, dorivor preparatlar, pestisidlar va ularning hosilalarini nomlash to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan.

O'quv qo'llanma universitet talabalariga mo'ljallangan. Undan o'rta maktab, akademik lisey, kasb-hunar kollejlarining yuqori sinf o'quvchilari, yosh o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

В учебном пособии даны материалы, связанные с современной номенклатурой органических соединений в согласии с правилами IUPAC. Правила тривиальной, рациональной, заместительной, аддитивной, субтрактивной, "а" номенклатур, входящие в состав номенклатуры IUPAC подробно объяснены на примерах. Даны сведения по номенклатуре краун эфиров, некоторых природных соединений, лекарственных препаратов, пестицидов и их производных.

Учебное пособие предназначено студентам университетов. Им могут пользоваться также ученики старших классов средних школ, академических лицеев, профессиональных колледжей и молодые преподаватели.

The training manual provides materials related to the modern nomenclature of organic compounds in accordance with the rules of IUPAC. The rules of trivial, rational, substitutive, additive, subtractive, "a" nomenclature included in the IUPAC nomenclature are explained in detail by examples. Information on the nomenclature of crown esters, some natural compounds, drugs, pesticides and their derivatives is given.

The training manual is intended for University studens. It can also be used by studens of senior secondary schools, academic lyceums, professional colleges and young teachers.

## Kirish

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuqori ilmiy-metodik, ma'naviy-ma'rifiy darajada olib borish, talabalarni fanning oxirgi yutuqlari doirasida o'rgatib borish dolzarb vazifalardan xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'isida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-, "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358- va "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805 qarorlaridagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan universitetlarda kimyo fanidan, shu jumladan organik kimyo fanidan zamonaviy o'quv adabiyotlarini tayyorlash dolzarbdir. Organik kimyo fanini chuqur o'rganishda organik birikmalarni zamonaviy qoidalar asosida nomlash katta ahamiyatga egadir.

Kimyoviy birikmalarni nomlash kimyoviy til bo'lib, uning odatdagi tillardan asosiy farqi ham shu nomlashdir. Kimyoviy tilning yana bir o'ziga xos tomoni, uning yozma shaklining og'zaki shakliga nisbatan juda muhim ekanligidir. Kimyoviy birikmalarni hozirgi vaqtdagi sistematik nomlashning asosiy maqsadi bu nomlash orqali kimyoviy birikmaning tarkibini va iloji boricha uning tuzilishini bayon qilishdir. Kimyoviy birikmalarning IUPAC nomenklaturasi deb ataladigan hozirgi zamon nomlanishi ularning eski, yangi va turli nomenklaturalarining majmuasidan iboratdir. Ularni turli usullar bilan, ayniqsa sistematik usul bilan nomlash o'quvchidan ma'lum bilimni talab qiladi. Shuning uchun har bir kimyogar kimyoviy birikmalarni zamonaviy nomlashni o'rganishi va bilishi zarur.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, turli mutaxassislikdagi kimyogarlarning ko'pchiligi organik birikmalarni nomlashda kamchiliklarga yo'l

qo'yadilar. Organik kimyo bo'yicha o'zbek tilida chiqarilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarda bu masala yetarli darajada to'liq yoritilmagan.

Mazkur o'quv qo'llanma shu kamchiliklarni bartaraf qiladi va o'quvchilarga organik kimyo fanini o'rganishga yordam beradi degan umiddamiz.

O'quv qo'llanmani yanada takomillashtirish bo'yicha bildiriladigan takliflarni minnatdorlik bilan qabul qilinadi.

# I. ORGANIK BIRIKMALARNI NOMLASH TURLARI

Organik birikmalarni nomlashning IYuPAK (IUPAC) nomeklaturasi tarkibiga kiruvchi turlari quyidagilardan iborat:

- Tarixiy yoki trivial nomenklatura;
- Ratsional nomenklatura;
- O'rinbosarli nomenklatura;
- Additiv nomenklatura;
- Subtraktiv nomenklatura;
- "a" nomenklatura;
- Boshqa nomenklaturalar.

## I.1. Tarixiy yoki trivial nomenklatura

Organik kimyo fani rivojlanishining tarixiy yo'lini aks ettiruvchi bu nomeklatura moddalarning olingan tabiiy manbai, o'ziga xos xususiyatlari, olinish usullari, birinchi marta olgan va xossalarini o'rgangan olimning nomi bilan bog'liq bo'lgan nomeklaturadir. Quyida keltirilgan moddalarning nomlari shu xususiyatlarni aks ettiradi.

Tabiiy manbalardan olinganlar: HCOOH – chumoli kislota,



mochevina



limon kislota



indigo



kofein

Olinish usuliga ko'ra:



pirogallol



pirouzum kislota

O‘ziga xos xususiyatli:




$CH_3(CH_2)_4COOH$

pikrin kislota                kapron kislota




malaxit yashili

Xossalarini o‘rgangan olimning nomi: $C_2H_5MgCl$ Grin`yar reaktivi,




Mixler ketoni va x.k.

## I.2. Ratsional nomenklatura

Bu nomenklatura IUPAC nomenklatura majmuasida *radikal-funksional* nomenklatura deb xam ataladi.

Organik birikmalarni ratsional nomenklaturada nomlashda bu birikma *gomologik qatorining eng sodda vakillarining* yoki *uglevodorod qoldig‘ining nomi* asos qilib olinadi. Ularning H atomini radikallarga almashingan hosilasi deb qaraladi. H atomiga almashgan radikallarning sonini di-, tri-, tetra- va x.k. deb belgilanadi.

Masalan: trimetilmetan (metanning nomi asosidagi nomenklatura)




$CH_4$ metan molekulasidagi 3 ta vodorod atomi 3 ta metil guruhga almashgan.

Radikal-funksional nomenklaturada nomlashda o'sha funksional guruxga, sinfga xos nom va radikal nomi keltiriladi.

Masalan: ikkilamchi butil spirt

$$CH_3-CH_2-\underset{CH_3}{\underset{|}{CH}}-OH$$

Ratsional nomenklatura bo'yicha organik birikmalarni nomlashda uglevodorodlar qoldiqlarining quyidagi nomlaridan foydalaniladi.

1 – jadval

**Uglevodorod qoldiqlarining nomlari**

| | |
|---|---|
| $CH_3-$ | Metil |
| $CH_3-CH_2-$ | Etil |
| $CH_3-CH_2-CH_2-$ | Propil |
| $CH_3-\underset{CH_3}{\underset{\vert}{CH}}-$ | Izopropil,<br>Ikkilamchi propil |
| $CH_3-CH_2-CH_2-CH_2-$ | n-butil-, birlamchi butil |
| $CH_3-CH_2-\underset{CH_3}{\underset{\vert}{CH}}-$ | Ikkilamchi butil |
| $CH_3-\overset{CH_3}{\overset{\vert}{\underset{CH_3}{\underset{\vert}{C}}}}-$ | Uchlamchi butil |
| $CH_3-\underset{CH_3}{\underset{\vert}{CH}}-CH_2-$ | Izobutil |
| $CH_3-\underset{CH_3}{\underset{\vert}{CH}}-CH_2-CH_2-$ | Izoamil |
| $CH_3-\overset{CH_3}{\overset{\vert}{\underset{CH_3}{\underset{\vert}{C}}}}-CH_2-$ | Neopentil |
| $\overset{5}{C}H_3-\overset{4}{C}H_2-\overset{CH_3}{\overset{\vert}{\overset{3}{C}}}H-\underset{CH_3}{\underset{\vert}{\underset{CH_2}{\underset{\vert}{\overset{2}{C}}}}}H-\overset{1}{C}H_2-$ | 2-etil-3-metilpentil |

| | |
|---|---|
|  | 3-etil-2-metilpentil |
|  | 2-etil-1-metilbutil |
|  | 2-etil-1,1-dimetilbutil |
| $CH_2=CH-$ | Vinil, etenil |
| $CH_3-CH=CH-$ | Propen-1-il-1 |
| $CH_2=CH-CH_2-$ | Allil, propen-2-il-1 |
| $CH_2=\underset{\mid}{C}-CH_3$ | Izopropenil, propen-1-il-2, 1-metilvinil |
| $CH_2=CH-\underset{\mid}{C}H-CH_3$ | Buten-1-il-3, metilallil |
| $CH\equiv C-$ | Etinil |
| $CH\equiv C-CH_2-$ | Propin-2-il-1, propargil |
| $-\overset{\mid}{\underset{\mid}{C}}H$ | Metilidin |
| $-CH_2-$ | Metilen |
| $CH_3-\underset{\mid}{C}H-$ , $CH_3-CH=$ | Etiliden |
| $H_3C-\overset{\mid}{\underset{\mid}{C}}-$ | Etilidin |
| $-CH_2-CH_2-$ | Etilen |
| $-CH_2-CH_2-CH_2-$ | Trimetilen |
| $-(CH_2)_5-$ | Pentametilen |
| $H_3C-\underset{\mid}{C}H-\underset{\mid}{C}H_2$ | Propilen |

| | |
|---|---|
| $CH_3-\underset{\|}{\underset{\|}{C}}-CH_3$ | Izopropiliden |
| $H_2C=\overset{\|}{C}-$ | Viniliden |
|  | Fenil |
|  | Benzil |
|  | Benzal (benziliden) |
|  | Benzilidin |
|  | Fenetil |
|  | Stiril |
|  $o-C_6H_4-$ | o-Fenilen<br>1,2-fenilen |
|  $m-C_6H_4-$ | m-Fenilen<br>1,3-fenilen |
|  | o-Tolil<br>2-tolil |

| | |
|---|---|
|  | m-Tolil |
|  | 2,3-ksilil |
|  | 3-kumenil<br>m-kumenil |
|  | Mezitil |
| $(C_3H_5\text{-})$ | Siklopropil |

Organik birikma molekulasi molekulyar massasining ortishi va tuzilishining murakkablashishi bilan ularni tarixiy yoki ratsional nomenklatura bo‘yicha nomlash qiyinlashadi yoki mumkin bo‘lmay qoladi. Bu vaqtda o‘rinbosarli (yoki sistematik, ilmiy) nomenklatura yordamga keladi.

### I.3. O‘rinbosarli nomenklatura

Bu nomenklatura *ilmiy* yoki *sistematik* nomenklatura deb xam ataladi. Ilmiy nomenklaturaga 1892-yilda Jenevada kimyogarlarning xalqaro kongressida asos solingan. Jeneva nomenklaturasi deb nom olgan bu nomenklatura o‘rinbosarli nomenklaturaning birinchi varianti bo‘lib hisoblanadi. Kimyogarlarning Lej shaxrida 1930 yilda bo‘lib o‘tgan kongressida o‘rinbosarli nomenklatura masalalari yanada takomillashtirildi va u nomenklatura Lej nomenklaturasi deb ham ataldi. Urushdan keyingi yillarda o‘rinbosarli nomenklatura “Nazariy va amaliy kimyoning xalqaro ittifoqi” (qisqacha IUPAC) deb nomlangan tashkilotning nomenklatura masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus komissiyasi tomonidan rivojlantirildi. Bu komissiya tomonidan

tayyorlangan nomenklaturaning IUPAC qoidalari 500 betli kitob bo‘lib, u 1979 yilda nashr qilingan, 1993 yilda esa qoidalarni aniqlashtiruvchi va to‘ldiruvchi tavsiyalar e’lon qilingan. Bu qoidalar asosidagi IYuPAK nomenklaturasi hozirda qo‘llaniladigan barcha turdagi nomenklaturalarning majmuasidir.

Ochiq uglerod zanjirli birikmalarning zamonaviy o‘rinbosarli nomenklaturasi asosida normal (tarmoqlanmagan) uglerod zanjirining nomlari yotadi. Uglerod atomlarining soniga qarab bu zanjirlar quyidagicha nomlanadi:

**met**-bitta uglerod atomi
**et**-ikkita uglerod atomi
**prop**-uchta uglerod atomi
**but**-to‘rtta uglerod atomi
**pent**-beshta uglerod atomi

**geks**-, **gept**-, **okt**-, **non**-, **dek**- va x.k.lar grek va lotin sonlari o‘zaklaridan olingan so‘zlar mos ravishda oltita, ettita, sakkizta, to‘qqizta, o‘nta uglerod atomlarini bildiradi.

Xalqasimon tuzilishli birikmalarning nomlari asosida siklogeksan, benzol, naftalin, piridin, indol, furan kabi ko‘plab tarixiy nomlar yotadi. Organik modda tuzilishining qolgan barcha o‘ziga xos tomonlari modda nomi asosida *qo‘shimcha* (suffiks) yoki *old qo‘shimcha* (prefiks) qo‘shish bilan xosil qilinadi.

2-jadval

**Organik kimyoda qo‘llaniladigan sonli old qo‘shimchalar (prefikslar)**

| Ko‘paytiruvchi omil | Prefiks | Ko‘paytiruvchi omil | Prefiks |
|---|---|---|---|
| 1 | Mono | 21 | Geneykoza |
| 2 | Di | 22 | Dokoza |
| 3 | Tri | 23 | Trikoza |
| 4 | Tetra | 24 | Tetrakoza |
| 5 | Penta | ... | ... |
| 6 | Geksa | 30 | Triakonta |
| 7 | Gepta | 31 | Gentriakonta |
| 8 | Okta | 32 | Dotriakonta |
| 9 | Nona | ... | ... |
| 10 | Deka | 40 | Tetrakonta |
| 11 | Undeka | ... | ... |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12 | Dodeka | 100 | Gekta |
| 13 | Trideka | ... | ... |
| ... | ... | 132 | Dotriakonta-gekta |
| 20 | Eykoza | | |

Uglerod zanjirining to'yinganlik yoki to'yinmaganlik darajasi -**an**, -**en** va -**in** qo'shimchalar qo'shish bilan ko'rsatiladi.

Birikma tarkibidagi funksional guruhlar maxsus qo'shimchalar bilan ifodalanadi. Masalan spirtlar –**ol** qo'shimchasi bilan, aldegidlar –**al**, ketonlar –**on**, aminobirikmalar –**amin**, karbon kislotalar **kislota** qo'shimchalari bilan ko'rsatiladi. Agar bu funksional guruhlarni nomning boshida yoki o'rtasida berish kerak bo'lsa ular **gidroksi**–, **okso**–, **amino**–, **karboksi**–, kabi old qo'shimchalar bilan ifodalanadi.

Birikma tarkibida funksional guruhlar ko'p bo'lsa, ularning bittasi so'z oxiridagi qo'shimcha bilan, boshqalari (kichiklari) esa so'z boshida nomlanadi. Yon zanjirda joylashgan barcha guruhlar alfavit tartibda keltiriladi.

Organik birikma tarkibida bir nechta funksional guruhlar mavjud bo'lganda bu funksional guruhlarning katta-kichikligi quyidagi shartli kichiklashib boruvchi jadval ketma-ketligi asosida aniqlanadi.

3-jadval

**Organik birikma tarkibidagi funksional va xarakteristik guruhlarning nomlari, formulalari, so'z oldidagi (*prefiks*), so'z oxiridagi (*suffiks*) qo'shimchalari va kichiklashib borish qatori**

| Nomi | Formulasi | Qo'shimchalari | |
|---|---|---|---|
| | | So'z oldida | So'z oxirida |
| Kationlar | $X^+$ ($-N^+R_3$, $-O^+R_2$) | Onio- | -oniy |
| Karboksil | -COOH | Karboksi- | -kislota |
| Sulfo | $-SO_3H$ | Sulfo- | -sulfokislota |
| Tuzlar | -COOM | - | metal... -karboksilat |
| Kislota angidridi | $(-CO)_2O$ | - | Angidrid |
| Murakkab efir | -COOR -(C)OOR | Alkoksikarbonil | R...-karboksilat Oat |
| Galogenangidrid | -COCl | Xlorformil- | -oilxlorid |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Amid | -$CONH_2$<br>-(C)$ONH_2$ | Kabamoil- | -karboksamid<br>-amid |
| Amidin | -C(=NH)-$NH_2$<br>-(C)(=NH)-<br>$NH_2$ | Amidino- | -<br>karboksiamidi<br>n –amidin |
| Nitril | -CN<br>-(C)N | Siano- | -karbonitril<br>-nitril |
| Aldegid | -CHO | Formil-<br>Okso- | -karbaldegid<br>-al |
| Keton | >C=O | Okso- | -on |
| Spirt, fenol | -OH | Gidroksi- | -ol |
| Tiol | -SH | Merkapto- | -tiol |
| Gidroperekisi (gidroperoksid) | -O-O-R | R-gidroperoksi | R-<br>gidroperoksid<br>(R-<br>gidroperekis) |
| Amin | -$NH_2$ | Amino- | -amin |
| Imin | =NH | Imino- | -imin |
| Oddiy efir | -OR | Alkoksi- | oksid (efir) |
| Sulfid | -SR | Alkiltio- | Sulfid |
| Peroksid | -O-O- | Dioksi- | -peroksid |
| | | | |
| Galogen xosila | -F,-Cl, -Br, -I | ftor, xlor, brom, yod | Galogenid |
| | -ClO | Xlorozil- | |
| | -$ClO_2$ | Xloril- | |
| | -$ClO_3$ | Perxloril- | |
| | -IO | Yodozil- | |
| | -$IO_2$ | Yodil- | |
| | -I$(OH)_2$ | Digidroksiyod- | |
| Diazobirikma | =$N_2$ | Diazo- | |
| | -$N_3$ | Azido- | |
| Nitrozobirikma | -NO | Nitrozo- | - |
| Nitrobirikma | -$NO_2$ | Nitro- | - |
| | =N(O)OH | Atsi-nitro- | - |
| | -OR | R-oksi- | |
| | -SR | R-tio- | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Alken | -C=C- | - | -en |
| Alkin | -C≡C- | - | -in |

Yuqorida aytilganlarga muvofiq quyidagi birikmani nomlaymiz.



O‘zak – **geks-**, to‘yinmaganlik darajasi – **en**, bosh (asosiy) funksional guruh qo‘shimchasi **kislota**, yon zanjirdagi guruhlar **2-gidroksi** va **3-etil**.

To‘liq nomi **3-etil-2-gidroksigeksen-4-kislota**.

Organik birikmani uning formulasi asosida nomlashda yoki uning o‘rinbosarli nomenklaturadagi nomi asosida formulasi yozilganda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Birikma tarkibidagi asosiy (bosh) funksional guruhni va uning so‘z ohiridagi qo‘shimchasini aniqlash.

2. Bosh va asosiy funksional guruhlarni o‘z ichiga oluvchi eng uzun va eng ko‘p tarmoqlangan uglerod zanjirining yoki xalqaning nomini aniqlab, bosh funksional guruh uglerod atomidan boshlab zanjirni raqamlash, raqamlarni (lokantlarni) qo‘shimchadan oldin yoki **so‘z** ohirida qo‘shimchadan keyin qo‘yish.

3. **-an, -en** va **-in** qo‘shimchalaridan hamda siklik va geterosiklik qatorlarda digidro, tetragidro kabi old qo‘shimchalardan foydalanib zanjir yoki xalqaning to‘yinganlik darajasini aniqlash. Molekula tarkibida qo‘shbog‘ xamda uchbog‘ birgalikda kelsa qo‘shbog‘ yaqin tomondan raqamlash.

4. **Di-**, **tri-**, **tetra-** kabi old qo‘shimchalarning alfavitga ta’sir etmasligini hisobga olgan holda yon zanjirdagi turli guruhlarni nomlashning old qismida alfavit tartibida joylashtirish.

O‘rinbosarli nomenklaturada ham 1-jadvalda keltirilgan uglevodorod qoldiqlarining nomlaridan foydalaniladi. Agar bu guruhlar tarkibida uglerod atomlari ko‘payib, murakkab ko‘rinish olsa u zanjirga ulangan joyidan boshlab alohida raqamlab nomlanadi.

## I.4. Additiv nomenklatura

Additiv nomlashga misollar:



1,4-digidronaftalin (1 va 4 raqamdagi uglerod-larda qo'shbog' bo'lmagan-ligi va u vodorod atomi bilan birikanini anglatadi)



1,2,3,4-tetragidroxinolin (1,2,3,4 raqamdagi atomlar ham huddi shunday vodorod bilan to'yingan)



etilenoksid



dekagidronaftalin



1-etil-2-metil-etilen oksid

## I.5. Subtraktiv nomenklatura

**Subtraktiv nomlashga misollar:**



Degidrobenzol (benzolda ikkita vodorod atomi yo'qligini bildiradi)



Dezoksiriboza (riboza molekulasida bitta gidroksi guruh yoqligini bildiradi)

## I.6. "a" nomenklatura

**"a" nomlashga misollar: (geteroatomlarning alfavit tartibda nomlanishi)**

$$\overset{12}{C}H_3-\overset{11}{C}(=O)-\overset{10}{C}H_2-\overset{9}{N}H-\overset{8}{C}H_2-\overset{7}{C}H_2-\overset{6}{O}-\overset{5}{C}H_2-\overset{4}{C}H_2-\overset{3}{O}-\overset{2}{C}H_2-\overset{1}{C}OOH$$

9-aza-3,6-dioksa-11-oksododekankislota



2,7,9-triazaantrasen

IYuPAK nomenklaturasi bo'yicha makrosiklik birikmalarni nomlash juda qiyin va noqulaydir. Masalan (IV) birikmani ushbu nomenklaturada nomlasak uning to'liq nomi 2,3,11,12-dibenzo-1,4,7,10,13,16-geksaoksasiklooktadeka-2,11-dien. Olinayotgan makro-siklik birikmalar sonining ortishi va ular tuzilishining murakkablashishi bilan bu birikmalarni nomlashni sistemalashtirish zarur bo'ldi. Lekin taklif qilingan bir nechta nomlashlardan hech qaysisi keng qo'llanilmadi. Shunday nomlashlardan biriga asosan (IV) birikmani quyidagicha nomlash taklif etilgan 2,3,11,12-benzo-18-,2,11-dien-1,4,7,10,13,16-$O_6$.

Makrosiklik birikmalarni nomlashda odatda ratsional nomenklatura qo'llaniladi. Poliefirlarni birinchi bo'lib sintez qilgan. Ch.Pedersen taklif qilgan nomenklaturada kraun efirlarni nomlashda xalqadagi umumiy uglerod va geteroatomlar soni yig'indisi ko'rsatiladi va u "kraun" so'zidan oldin qo'yiladi."Kraun" so'zidan keyin esa geteroatomlar soni ko'rsatiladi. Agar xalqaga siklobirikma birikkan yoki xalqada kislorod atomidan boshqa geteroatom joylashgan bo'lsa, ularning xalqadagi tartib nomeri va nomi eng avval ko'rsatiladi. IYuPAK nomenklaturasiga ko'ra kraun-efirlar siklik uglevodo-rodlarning hosilalari sifatida qaraladi. (IV) birikmani yuqoridagi taklif asosida nomlanadigan bo'lsa 2,3,11,12-benzoni dibenzo, siklooktadeka xalqani 18-kraun deb, 1,4,7,10,13,16-geksaoksa ya'ni geteroatomlar soni 6 deb belgilanadi va u dibenzo-18-kraun-6 deb nomlanadi:



I



II



III



IV



V

formula I – 12-kraun-4; (1,4,7,10-tetraoksasiklododekan);
formula II – 1,10-diaza-18-kraun-6; (1,4,10,13-tetraoksa-7,16-diazasiklooktadekan);
formula III – 1,7-ditia-15-kraun-5;
formula IV – dibenzo-18-kraun-6;
formula V – siklogeksano-15-kraun-5.

## I.7. Freonlarni nomlash

Freonlarda C, F, Cl, H atomlari bo'lishi mumkin. Freonni nomlash uchun biz quyidagi qoidalarni bilishimiz kerak. Freonni nomlashda uni F-C-1 H+1 F formulaga qo'yib nomlaymiz. Bunda freon tarkibidagi C atomini qiymatini C-1 formula orqali hisoblaymiz. Agar freon tarkibida bitta C atomi bo'lsa unda 1-1=0 ya'ni 0. H atomini soniga bir raqamini qo'shamiz. Agar H atomi bo'lmasa 0+1=1 raqami qo'yiladi. F nechta bo'lsa o'sha son qo'yiladi.

$CF_2Cl_2$ formulali freonni nomlasak.

C=1-1=0

H=0+1=1

F=2

Yuqoridagi freon nomi F-012 yoki oddiygina F-12 bo'ladi.

Freonning nomi asosida formulani yozishda esa F-[C-1][H+1] F (Cl) formuladan foydalanamiz. Uglerod atomining 4 valentligiga asoslanib H va F sonidan to‘lmay qolgan valentligini Cl atomi bilan to‘ldiramiz. Nomi F-022 yoki F-22 bo‘lgan freon formulasini yozamiz.

C=0 ekan bu degani 1-1=0 ya’ni 1 ta uglerod atomi bor.

H=2. 1+1=2, demak 1 ta H atomi bor.

F=2 ta ftor bor.

$CHF_2$. H va F lar yig‘indisi 3 demak 1 ta Cl atomi xam bor ekan. $CHF_2Cl$

### I.8. Fosfor organik birikmalarni nomlash

Fosfinlar: $PH_3$, $RPH_2$, $R_2PH$, $R_3P$, $R_4P^+X^-$.

Trifenilfosfinmetilen, metilentrifenilfosforan, trifenilfosforilid $(C_6H_5)_3P=CH_2$



Fosfonit kislota



Fosfinit kislota



Fosfonat kislota



Fosfinat kislota



Metafosfat kislota



Ortofosfat kislota

**Misollar.**

1.  berilgan moddani nomlang.

**Yechish:**

Birinchi va ikkinchi uglerodda vodorod yoqligi ko‘rsatib o‘tamiz. 1,2-degidronaftalin.

2. Quyidagi moddani nomlang. $CH_3-CH=CH-CH(OH)-CH_2-COOH$

**Yechish:**

$$\overset{6}{C}H_3-\overset{5}{C}H=\overset{4}{C}H-\overset{3}{C}H(OH)-\overset{2}{C}H_2-\overset{1}{C}OOH$$

O‘zak – **geks-**, to‘yinmaganlik darajasi – **en**, bosh (asosiy) funksional guruh qo‘shimchasi **kislota**, yon zanjirdagi funksional guruh **3-gidroksi**.

To‘liq nomi **3-gidroksigeksen-4-kislota**.

**Topshiriqlar.**

1. Organik birikmalarning nomlash turlariga misollar keltiring.
2. Quyidagi moddani ratsional nomenklatura bo‘yicha nomlang.




3. Quyidagi moddani radikal-funksional nomenklatura bo‘yicha nomlang.

$CH_3-CH(OH)-CH_3$

4. 2-metil-3-etilpentil radikalining tuzilishini yozing.
5. 3-etil-2-xlorgeksen-5 kislotaning tuzilish formulasini yozing.
6. 1,2-dimetiletilenoksidning tuzilish formulasini yozing.
7. 3-dezoksiribozaning tuzilish formulasini yozing.
8. Dibenzo-18-kraun-6 ning tuzilish formulasini yozing.
9. F-13 freon formulasini yozing.

## II. Turli sinf organik birikmalarini nomlash. To‘yingan organik birikmalarni nomlash.

### II.1. Alkanlar
### Trivial nomenklatura

Alkanlarning boshlang‘ich vakillari bu nomenklaturada tasodifiy nomlangan: $CH_4$-metan, $C_2H_6$-etan, $C_3H_8$-propan, $C_4H_{10}$-butan. Odatda agar ikkita metil radikali bitta oxirgi uglerodda joylashsa ***izo-*** old qo‘shimchasi ishlatiladi.

$CH_3-CH-CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3$

Izobutan

$CH_3-CH-CH_2-CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3$

Izopentan

$CH_3-CH-CH_2-CH_2-CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3$

Izogeksan

$CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3-C-CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3$

Neopentan

$CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3-C-CH_2-CH_3$<br>
$|$<br>
$CH_3$

Neogeksan

To‘rtlamchi uglerod atomli uglevodorod nomlarining oldiga neo- old qo‘shimchasi qo‘shiladi.

### Ratsional nomenklatura

Agar tarmoqlangan uglevodorodning ikki tomoni simmetrik bo‘lsa uni dialkil deb qarasak ham bo‘ladi. Masalan:

$CH_3 \quad\quad CH_3$<br>
$\searrow \quad \nearrow$<br>
$CH-CH$<br>
$\nearrow \quad \searrow$<br>
$CH_3 \quad\quad CH_3$

Diizopropil

Alkanlarni ratsional nomenklaturada nomlashda ularning birinchi vakili $CH_4$- metaning vodorod atomlari uglevodorod radikaliga

almashgan hosilasi deb qaraladi. Agar o‘xshash radikallar mavjud bo‘lsa ularning soni di-, tri-, tetra-, penta- va x.k. deb ko‘rsatiladi.

$$CH_3-\underset{\displaystyle CH_3}{\underset{|}{C}H}-CH_3 \qquad\qquad CH_3-\underset{\displaystyle CH_3}{\underset{|}{C}H}-CH_2-CH_3$$

trimetilmetan — dimetiletilmetan

Agar di-, tri-, tetra-, penta- va x.k. ishlatilgan bo‘lsa biz bis-, tris-, tetrakis- kabi qo‘shimchalardan xam foydalanamiz.




bis-(orto,orto′-dimetilfenil)-metan

**Sistematik nomenklatura**

Alkanlarni sistematik nomenklatura asosida nomlashda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak.

1. Tarmoqlangan uglevodorodning eng uzun va eng ko‘p tarmoqlangan uglerod zanjiri belgilab olinadi. Ular arab sonlari bilan raqamlanadi.

2. Raqamlash radikal yaqin tomondan boshlanadi. Radikal bu asosiy uglerod zanjiri tarkibiga kirmagan uglevodorod qoldigi. Radikalning asosiy raqamlangan zanjirdagi nechanchi uglerodda turganligini arab raqami bilan ko‘rsatib chiziqcha qo‘yiladi va radikal nomi ko‘rsatiladi. Keyin asosiy uglevodorod nomi keltiriladi.

$$\overset{1}{C}H_3-\underset{\displaystyle CH_3}{\underset{|}{\overset{2}{C}H}}-\overset{3}{C}H_2-\overset{4}{C}H_3$$

2-metilbutan

3. Agar asosiy uglerod zanjirini raqamlashda ikkita har xil radikal teng tomonda joylashib qolgan paytda alfavitda oldin keluvchi radikal yaqin tomondan raqamlanadi.

$$\overset{1}{C}H_3-\overset{2}{C}H_2-\underset{\displaystyle C_2H_5}{\underset{|}{\overset{3}{C}H}}-\underset{\displaystyle CH_3}{\underset{|}{\overset{4}{C}H}}-\overset{5}{C}H_2-\overset{6}{C}H_3$$

3-etil-4-metilgeksan

4. Radikallar ishlatilayotgan alfavit ketma-ketligida yoziladi. Quyidagi misolda ikkita metil va butil radikali bor. Radikallar “m” va “b” xarfidan boshlanadi. Alfavit bo‘yicha “b” xarfi birinchi keladi keyin “m” xarfi (di-, tri-, izo-, neo-, ikki-, uchlamchi- va boshqalar bundan mustasno).



4-butil-2-metiloktan

5. Agar birikma tarkibida bir nechta radikallar bo‘lsa, raqamlashda birinchi va oxirgi radikallar o‘xshash bo‘lsa asosiy uglerod zanjirni qaysi tomondan raqamlash to‘g‘riligini bilish uchun ikkala xoldagi radikallarga mos keladigan uglerod raqamlarini yig‘indisi topiladi. Qaysi xolatda eng kichik yig‘indi chiqsa o‘sha tomondan raqamlanadi.



I



II

(2+4+5+6=17) (2+3+4+6=15)

Demak II xolat bo‘yicha raqamlanadi va nomi 3-izopropil-2,4,6-trimetilgeptan bo‘ladi.

6. Radikalni o‘zi xam tarmoqlangan bo‘lsa, radikalni o‘zini nomlab qavs ichiga yoziladi. Radikalni nomlashda raqamlash asosiy zanjirga birikkan uglerodan boshlanadi.



8-(2-metilbutil)geksadekan

## II.2. Organik galogenli birikmalar. Trivial nomenklatura

$CHCl_3$ xloroform; $CHI_3$ yodoform; $CHF_3$ ftoroform; $CHBr_3$ bromoform.

$CCl_4$ uglerod tetraxlorid (to‘rt xlorli uglerod); $CF_4$ uglerod tetraftorid (to‘rt ftorli uglerod); $CI_4$ uglerod tetrayodid (to‘rt yodli uglerod); $CBr_4$ uglerod tetrabromid (to‘rt bromli uglerod).

## Radikal-funksional nomenklatura

Radikal nomi keltirilib ohirida galogen nomini 3-jadval asosida galogen suffiksi ishlatiladi.

$CH_3Cl$ metilxlorid; $CH_2Cl_2$ metilenxlorid; $(CH_3)_3CCl$ uchlamchi butilxlorid.

## O‘rinbosarli nomenklatura

Eng uzun uglerod zanjiri tanlab olinib galogen yaqin tomondan raqamlanadi. Galogen joyi esa arab raqami bilan ko‘rsatilib galogen nomi keltiriladi. Radikal va galogen nomi alfavit tartibda yoziladi.



2-brom-3-metilbutan

Asosiy uglerod zanjiri tuzilish tarkibida galogen atomlaridan tashqari uglevodorod radikallari bo‘lgan bir nechta o‘rinbosar mavjud bo‘lsa ularni alfavit tartibda keltiriladi. Asosiy zanjir uglerod atomlarini raqamlanganda u birinchi nomlangan o‘rinbosarga yaqin tomondan raqamlanadi.



2-brom-4-metilpentan



2-metil-4-xlorpentan



2-brom-3-brommetilpentan



2,5-dibrom-3-brommetilpentan

Uglevodorod tarkibidagi xamma vodorod atomlari bir xildagi galogen atomlariga almashingan bo‘lsa unda per- (perftor-, perxlor-, perbrom-, peryod-) old qo‘shimchasi qo‘llaniladi:

$CF_3CF_2CF_2CF_2CF_3$ perftorpentan

$CCl_3CCl_2CCl_3$ perxlorpropan

Agar uglevodorod tarkibidagi xamma vodorod atomi turli xildagi galogen atomlariga almashingan bo‘lsa unda per- old qo‘shimchasi qo‘llanilmaydi:



2-xlorgeptaftorpropan

**Misollar.**

1.  berilgan moddani nomlang.

**Yechish:**



B xarfi birinchi kelgani uchun raqamlash Br yaqin tomondan boshlanadi. 2-brom-3-metilbutan.

2. Quyidagi moddani nomlang $CCl_3$-$CCl_3$.

**Yechish:**

Uglevodorod tarkibidagi barcha vodorodlar xlor atomiga almashgani uchun per-old qo'shimchasini qo'llaymiz. Moddaning nomi perxloretan.

**Topshiriqlar.**

1. Galogen organik birikmalar qanday nomenklaturada nomlanadi. Misol bilan tushuntiring.
2. 1-brom-3-brommetilpentanning barcha izomerlarini yozing va nomlang.

## II.3. Spirtlar va fenollar. Trivial nomenklatura

Ko'pchilik spirtlar trivial nomenklatura bo'yicha nomlanadi.

| $CH_3OH$ | $C_2H_5OH$ | $C_6H_5OH$ |
|---|---|---|
| yog'och spirti | vino spirti | Fenol |
| yoki karbinol | | (karbol kislota) |



ortochumoli kislota



rezorsin



gidroxinon



pirokatexin



pirogallol



oksigidroxinon



floroglyutsin



m-krezol



2,3-ksilenol



karvakrol



timol



stifnin kislota



salitsil kislota

## Ratsional nomenklatura

Alifatik spirtlarni nomlashda ularning birinchi vakili karbinolning vodorod atomlari radikalga almashgan hosilasi deb qaraladi.

$$CH_3-\underset{\underset{OH}{|}}{CH}-CH_3 \qquad\qquad C_6H_5-\underset{\underset{OH}{|}}{CH}-CH_3$$

dimetilkarbinol metilfenilkarbinol

Radikal-funksional nomenlatura bo‘yicha nomlaganimizda spirt so‘zidan foydalanamiz.

$$CH_3\text{-}CH_2\text{-}CH_2\text{-}CH_2\text{-}OH$$

birlamchi butil spirt




o-metil fenol

$$CH_3-\underset{\underset{OH}{|}}{CH}-CH_3$$

ikkilamchi propil spirti
(izopropil spirt)

$$CH_3-\overset{\overset{CH_3}{|}}{\underset{\underset{OH}{|}}{C}}-CH_3$$

uchlamchi butil spirt




m-digidroksibenzol




p-digidroksibenzol




o-digidroksibenzol




1,2,3-trigidroksibenzol




1,2,4-trigidroksibenzol




1,3,5-trigidroksibenzol




m-metilfenol




o,m-dimetilfenol

## O‘rinbosarli nomenklatura

O‘rinbosarli nomenklatura bo‘yicha nomlashda doimgidek eng uzun uglerod zanjiri tanlib olinadi va raqamlash OH gurux yaqin joydan boshlanadi. OH guruxni **ol-** suffiks bilan nomlanadi va uning turgan joyi arab raqami bilan ko‘rsatiladi.


propanol-1


propanol-2


2-metilpropanol-2


2-etilbutandiol-1,3


3-gidroksimetilpentandiol-1,4

3-gidroksimetil-pentanol-2

Asosiy uglerod zanjirida OH- guruhdan tashqari boshqa OH- dan katta funksianal guruh mavjud bo‘lsa raqamlash OH- dan katta funksianal guruhga yaqin ugleroddan boshlanadi:


5-gidroksigeksanal

Radikal holda kelgan RO-ni nomlash uchun xuddi HO dagi gidroski so‘zidagi **“gidr”** so‘zi o‘rniga uglevodorod radikali nomidagi il qo‘shimchasi tushib qoldirilib **“oksi”** so‘ziga qo‘shiladi. $CH_3O$- metoksi; $CH_3CH_2O$- etoksi; $CH_3CH_2CH_2O$- propoksi; $CH_3CH_2CH_2CH_2O$- butoksi; $(CH_3)_2CHO$- izopropoksi; $(CH_3)_2CHCH_2O$- izobutoksi; $CH_3CH_2CH(CH_3)O$- ikkilamchi butoksi; $(CH_3)_3CO$- uchlamchi butoksi; -O-$CH_2$-O- metilendioksi; -O-$CH_2$-$CH_2$-O- etilendioksi; -O-$CH_2$-$CH_2$-$CH_2$-O- trimetilendioksi.


metantriol, trigidroksimetan

Ikki valentli radikal holida –ORO- kelganda –dioksi suffiksi qo‘shiladi. $-O-CH_2-O-$ metilendioksi; $-O-CH_2-CH_2-O-$ etilendioksi; $-O-CH_2-CH_2-CH_2-O-$ trimetilendioksi.




1,3-digidroksibenzol




1,4-digidroksibenzol




1,2-digidroksibenzol




1,2,3-trigidroksibenzol




1,2,4-trigidroksibenzol




1,3,5-trigidroksibenzol




3-metil-1-gidroksibenzol




2,3-dimetil-1-gidroksibenzol




5-izopropil-2-metilfenol




2-izopropil-5-metilfenol




2,4,6-trinitro-1,3-digidroksibenzol




2-gidroksifenilmetanol

## II.4. Oddiy efirlar. Radikal-funksional nomenklatura

Oddiy efirlarni nomlashda kislorodning ikki tomonidagi radikallar nomi aytilib **efir** so‘zi qo‘shiladi.

$CH_3$-O-$CH_3$
dimetil efir

$CH_3$-O-$C_2H_5$
metiletil efir



metilfenil efir



pirokatexinning dimetil efiri



difenil efir



o-girdoksimetoksibenzol

$ClCH_2CH_2OCH_2CH_2Cl$
bis(2-xloretil)efir

$HOCH_2CH_2OCH_2CH_2OH$

2,2`-**oksi**dietanol

$HOOCCH_2CH_2OCH_2CH_2COOH$

3,3`-**oksi**dipropion kislota



1-xlor-2,3-**epoksi**propan



**epoksi**etan



ortosirka kislotasining etil efiri

**O'rinbosarli nomenklatura**

Har doimgidek eng uzun uglerod zanjirini belgilab olanadi. Ikkinchi kichik radikal esa kislorod bilan birgalikda funksional guruh deb qaraladi. Asosiy zanjirni raqamlash esa kislorod atomi yaqin joydan boshlanadi. RO-ni nomlash uchun xuddi HO dagi gidroski so'zidagi **"gidr"** so'zi o'rniga uglevodorod radikali nomidagi il qo'shimchasi tushib qoldirilib **"oksi"** so'ziga qo'shiladi. Masalan $CH_3O$- metoksi, $C_2H_5O$- etoksi, $C_3H_7O$- propoksi va x.k.



2-etoksipropan



1-metoksi-3-metilbutan



metoksibenzol



1,2-dimetoksibenzol



fenoksibenzol



2-metoksifenol



1,1,1-trietoksietan

Kraun efirlarni nomlash birinchi bobda keltirilgan.

## Peroksidlar

R-O-O-H tarkibli birikmalarni nomlashda R radikal nomiga **gidroperoksid** prefiksi qo‘shiladi: $CH_3OOH$ metilgidroperoksid.

$R^1$-O-O-$R^2$ tarkibli birikmani nomlashda $R^1$ va $R^2$ radikalarning nomlari alfavit tartibda yoki o‘sib borish tartibda yozib keyin **peroksid** prefiksi yoziladi. $C_4H_9OOCH_3$ butilmetilperoksid (alfavit tartibi); metilbutilperoksid (murakkablik bo‘yicha).

**Misollar.**

1.  berilgan moddani o‘rinbosarli nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**



2-metoksipropan

2. 2,2-dimetoksipropani tuzilishini yozing.

**Yechish:**



**Topshiriqlar.**

1. Spirt va fenollar qanday nomenklaturada nomlanadi. Misol bilan tushuntiring.
2. $C_4H_{10}O$ formulaga mos keladigan spirt va oddiy efirlarning barcha izomerlarini yozing va barcha nomenklaturada nomlang.

## II.5. Aldegid va ketonlar. Ketenlar. Trivial nomenklatura


chumoli aldegid


sirka aldegid


propion aldegid


moy aldegid


izomoy aldegid


valerian aldegid


izovalerian aldegid


akrolein, akril aldegid


malon aldegid


qahrabo aldegid


glutar aldegid


adipin aldegid

Kam hollarda o‘rinbosarlarning holati grek xarfi bilan ifodalanadi.


α-metilvalerian aldegid


γ-brommoy aldegid


aseton


diasetil

### Ratsional nomenlatura

Aldegidlarni nomlashda sirka aldegidni asos qilib olinadi.



metilsirka aldegid dimetilsirka aldegid

Ketonlarni nomlashda karbonil guruxining ikki tomonidagi radikallar nomi keltirilib keton so'zi qo'shiladi.



metiletil keton metilizobutil keton

### Sistematik nomenklatura

Aldegidlarni sistematik nomenklaturada nomlashda karbonil guruhidagi uglerod atomidan raqamlashni boshlab eng uzun zanjir tanlib olinadi va –al suffiksi qo'shiladi.



proponal 2-metilproponal

Atsiklik polialdegidlarni nomlashda, ikkita aldegid guruhidan ko'proq bo'lganda, ikki xil usulda nomlash mumkin. Birinchisida eng uzun zanjir tanlab olinadi va raqamlanadi. Bunda aldegid guruhi asosiy zanjirga kiritilmaydi va –trikarbaldegid, –tetrakarbaldegid suffiksi qo'shiladi.



1,2,4-butantrikarbaldegid



formaldegid atsetaldegid propionaldegid butiraldegid



izobutiraldegid



valeraldegid



izovaleraldegid



akrilaldegid



malonaldegid



suksinaldegid



glutaraldegid



adipaldegid

Ketonlarni nomlashda uglerod zanjiri karbonil gurux yaqin uglerod tomondan raqamlanadi va karbonil uglerod atomi raqami koʻrsatilib uglevodorod nomiga –on qoʻshimchasi qoʻshiladi.



butanon-2



4-metilpentanon-2



2,4-geksandion

**Ketenlar-** bu  tarkibli birikma. Ular oʻrinbosarli nomenklatura boʻyicha nomlanadi.



dibutilketen



propionilketen yoki 1-penten-1,3-dion

Aldegid va ketonlarning xosilalarini nomlash quyidagicha bo‘ladi:

**Atsetallar.** Bular >$C(OR_1)(OR_2)$ guruh saqlagan birikmalar. Bularni nomlashda dialkoksibirikmalar sifatida xamda aldegid yoki keton nomini keltirib keyin radikallar nomini qo‘shib **–atsetal** suffiksini keltirsa xam bo‘ladi.



1,1-dietoksipropan yoki propanaldegid dietilatsetal



1-etoksi-1-propanol, propanaldegid yarim atsetali

**Atsilallar.** Bularga $R^1CH(OCOR^2)_2$ yoki $R^1(R^2)CH(OCOR^3)$ birikmalarga mos. Ba’zan bu birikmalar murakkab efirlar singari nomlanadi.



etilidendipropionat



butilidendiatsetat

**Misollar.**



1. berilgan moddani sistematik nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**



3,3-dimetilbutanon-2

2. Izovaleraldegidni sistematik nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**



3-metilbutanal

**Topshiriqlar.**

1.Ketenlar nima va qanday nomlanadi? Misol bilan tushuntiring.

2. Atsetallar nima va qanday nomlanadi? Misol bilan tushuntiring.

3. Atsiallar nima va qanday nomlanadi? Misol bilan tushuntiring.

4. Adipin aldegidning barcha izomerlarining tuzilish formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.

## II.6. Karbon kislotalar.
## Bir asosli kislotalar

| Kislota formulasi | Trivial nomenklatura | Tuzi va murakkab efirining nomi |
|---|---|---|
| HCOOH | Chumoli kislota | Formiat |
| $CH_3COOH$ | Sirka kislota | Asetat |
| $CH_3CH_2COOH$ | Propion kislota | Propionat |
| $CH_3(CH_2)_2COOH$ | Moy kislota | Butirat |
| $CH_3(CH_2)_3COOH$ | Valerian kislota | Valerat |
| $CH_3(CH_2)_4COOH$ | Kapron kislota | Kapronat |
| $CH_3(CH_2)_6COOH$ | Kapril kislota | Kaprilat |
| $CH_3(CH_2)_8COOH$ | Kaprin kislota | Kaprinat |
| $CH_3(CH_2)_{10}COOH$ | Laurin kislota | Laurinat |
| $CH_3(CH_2)_{12}COOH$ | Miristin kislota | Miristinat |
| $CH_3(CH_2)_{14}COOH$ | Palmitin kislota | Palmitinat (palmitat) |
| $CH_3(CH_2)_{16}COOH$ | Stearin kislota | Stearinat (stearat) |
| $CH_3(CH_2)_{18}COOH$ | Araxin kislota | Araxinat |

## Ratsional nomenklatura

Ratsional nomenklaturada nomlashda bir asosli karbon kislotalarni **sirka kislota xosilasi** deb qaraladi.

$CH_3CH_2COOH$ – metilsirka kislota $CH_3CH_2CH_2COOH$ – etilsirka kislota



metiletilsirka kislota



dimetiletilsirka kislota

## Sistematik nomenklatura

Bir asosli karbon kislotalarni sistematik nomenklaturada nomlashda karboksil gurux saqlagan eng uzun uglerod zanjir belgilanadi. Raqamlash karboksil guruxidagi uglerod atomidan boshlanadi. Uzun zanjir belgilanib olinadi va uglevodorod nomiga **kislota** so‘zi qo‘shiladi.

| | |
|---|---|
| $HCOOH$ | metan kislota |
| $CH_3COOH$ | etan kislota |
| $CH_3CH_2COOH$ | propan kislota |
| $CH_3(CH_2)_2COOH$ | butan kislota |
| $CH_3(CH_2)_3COOH$ | pentan kislota |



2-metilbutan kislota



2,2-dimetilbutan kislota

### Ikki asosli kislotalar

| Kislota formulasi | Trivial nomenklatura | Sistematik nomenklatura |
|---|---|---|
| HOOC-COOH | Oksalat kislota | Etan dikislota |
| $HOOC\text{-}CH_2\text{-}COOH$ | Malon kislota | Propan dikislota |
| $HOOC\text{-}(CH_2)_2\text{-}COOH$ | Qaxrabo kislota | Butan dikislota |
| $HOOC\text{-}(CH_2)_3\text{-}COOH$ | Glutar kislota | Pentan dikislota |
| $HOOC\text{-}(CH_2)_4\text{-}COOH$ | Adipin kislota | Geksan dikislota |

| | | |
|---|---|---|
| HOOC-$(CH_2)_5$-COOH | Pimelin kislota | Geptan dikislota |
| HOOC-$(CH_2)_6$-COOH | Probka kislota | Oktan dikislota |
| HOOC-$(CH_2)_7$-COOH | Azelain kislota | Nonan dikislota |
| HOOC-$(CH_2)_8$-COOH | Sebatsin kislota | Dekan dikislota |

**Ikki asosli kislota anion va tuzlarining nomlari**

| Kislota formulasi | Trivial nomenklatura | Sistematik nomenklatura |
|---|---|---|
| -OOC-$CH_2$-COO- | Malonat dianion | Propandioat ion |
| KOOC-$CH_2$-COOK | Kaliy malonat | Kaliy propandioat |
| HOOC-$(CH_2)_5$-COO- | | Gidrogeptandioat |
| HOOC-$(CH_2)_5$-COOK | | Kaliy gidrogeptandioat |

Karbon kislotalarning karboksil guruhidagi OH gidroksil guruhni yo'qolishidan xosil bo'lgan radikallar **atsil radikal** deyiladi. Atsil radikallarini IYuPAK nomenklaturasidan nomlashda **–oil** suffiksini mos keladigan uglevodorodga qo'shiladi: $CH_3CO$- etanoil. Ba'zan – **karbonil** suffiksi xam qo'llaniladi: $CH_3CO$- metankarbonil.

**Bir asosli asosli karbon kislota atsil radikali**

| Radikalning tuzilish formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | trivial | Sistematik |
| HCO- | Formil | Metanoil |
| $CH_3CO$- | Atsetil | Etanoil (metankarbonil) |
| $CH_3CH_2CO$- | Propionil | Propanoil (etankarbonil) |
| $CH_3(CH_2)_2CO$- | Butiril | Butanoil (propankarbonil) |
| $(CH_3)_2CHCO$- | Izobutiril | 2-metilpropanoil |
| $CH_3(CH_2)_3CO$- | Valeril | Pentanoil |

| | | |
|---|---|---|
| | | (butankarbonil) |
| $(CH_3)_2CHCH_2CO$- | Izovaleril | 2-metilbutanoil |
| $(CH_3)_3CCO$- | Pivalil | Pivaloil |
| $CH_3(CH_2)_4CO$- | Kaproil | Geksanoil |
| $CH_3(CH_2)_5CO$- | Enantil | Geptanoil |
| $CH_3(CH_2)_6CO$- | Kaprilil | Oktanoil |
| $CH_3(CH_2)_7CO$- | - | Nonanoil |
| $CH_3(CH_2)_8CO$- | Kapril | Dekanoil |
| $CH_3(CH_2)_{10}CO$- | Lauril | Dodenanoil |
| $CH_3(CH_2)_{12}CO$- | Miristoil | Tetradekanoil |
| $CH_3(CH_2)_{14}CO$- | Palmitoil | Geksadekanoil |
| $CH_3(CH_2)_{15}CO$- | - | Geptadekanoil |
| $CH_3(CH_2)_{16}CO$- | Stearoil | Oktadekanoil |

**Ikki asosli asosli karbon kislota atsil radikali**

| Radikalning tuzilish formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | trivial | Sistematik |
| -OC-CO- | Oksalil | Etandioil |
| -OC-$CH_2$-CO- | Malonil | Propandioil |
| -OC-$(CH_2)_2$-CO- | Suktsinil | Butandioil |
| -OC-$(CH_2)_3$-CO- | Glutaril | Pentandioil |
| -OC-$(CH_2)_4$-CO- | Adipoil | Geksandioil |
| -OC-$(CH_2)_5$-CO- | Pimeloil | Geptandioil |
| -OC-$(CH_2)_6$-CO- | Suberoil | Oktandioil |
| -OC-$(CH_2)_7$-CO- | Azelaoil | Nonandioil |
| -OC-$(CH_2)_8$-CO- | Sebatsoil | Dekandioil |
| HOOC-CO- | Karboksi metanoil | Karboksimetanoil |
| HOOC-$CH_2$-CO- | - | 2-karboksietanoil |
| HOOC-$(CH_2)_2$-CO- | - | 3-karboksipropanoil |
| HOOC-$(CH_2)_3$-CO- | - | 4-karboksibutanoil |
| HOOC-$(CH_2)_4$-CO- | - | 5-karboksipentanoil |
| HOOC-$(CH_2)_5$-CO- | - | 6-karboksigeksanoil |
| HOOC-$(CH_2)_6$-CO- | - | 7-karboksigeptanoil |
| HOOC-$(CH_2)_7$-CO- | - | 8-karboksioktanoil |
| HOOC-$(CH_2)_8$-CO- | - | 9-karboksinonanoil |
| HOOC-$(CH_2)_9$-CO- | - | 10-karboksidekanoil |
| HOOC-$(CH_2)_{10}$-CO- | - | 11-karboksiundekanoil |

**Murakkab efirlar**

| Radikalning tuzilish formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | trivial (ratsional) | IYuPAK bo'yicha |
| $HCOOCH_3$ | Metilformiat, chumoli kislota metil efiri | Metilmetanoat, metilvodorodkarboksilat |
| $HCOOC_2H_5$ | Etilformiat, chumoli kislota etil efiri | Etilmetanoat, etilvodorodkarboksilat |
| $CH_3COOC_2H_5$ | Etilatsetat, sirka kislota etil efiri | Etiletanoat, etilmetankarboksilat |
| $CH_3COOCH(CH_3)_2$ | Izopropilatsetat, sirka kislota izopropil efiri | Metiletiletanoat, izopropiletanoat, izopropilmetankarboksilat |
| $CH_3CH_2COOC_2H_5$ | Etilpropionat, propion kislota etil efiri | Etilpropanoat, etiletankarboksilat |
| $CH_3(CH_2)_2COOC_2H_5$ | Etilbutirat, moy kislota etil efiri | Etilbutanoat, etilpropankarboksilat |
| $CH_3(CH_2)_3COOC_2H_5$ | Etilvalerat, valerian kislotasining etil efiri | Etilpentanoat, etilbutankarboksilat |

**Ikki asosli kislota efirlari va tuzlarining nomlari**

| Kislota formulasi | Trivial nomenklatura | Sistematik nomenklatura |
|---|---|---|
| $C_2H_5OOC\text{-}CH_2\text{-}COOC_2H_5$ | Malon kislotasining dietil efiri | Dietilmalonat |
| $C_2H_5OOCCH_2CH_2COOH$ | Etilgidrosuktsinat | |
| $C_2H_5OOCCH_2CH_2COONa$ | Natriyetilsuktsinat | |
| $ClOC(CH_2)_5COCl$ | | Geptandioildixlorid |
| $CH_3OC(CH_2)_5COCl$ | | Metil-xlorformilgeksanoat |
| $N{\equiv}C(CH_2)_4C{\equiv}N$ | | Geksandinitril |
| $N{\equiv}CCH_2COOH$ | Tsianosirka kislota | Tsianosirka kislota |

**Yog'lar.** Yog' glisterin va yuqori molekulyar kislota qoldiqlaridan tashkil topgan murakkab efirlardir. Gilitserindagi spirt guruhning eterifikatsiyalanishidan kelib chiqqan xolda mono-, di- va triglitse-

ridlarga bo'linadi. Izomer glitseridlarni farqlash maqsadida glitserin girdoksidlari grek harflari bilan ko'rsatiladi: $CH_2(OH)\alpha$-$CH(OH)\beta$-$CH_2(OH)\alpha'$.

Agar R1-stearin kislota qoldig'i, R2-palmitin kislota qoldig'i, R3-laurin kislota qoldig'i bo'lsa, glitseridlarni nomlanishini jadvalda keltirib o'tamiz.

| **Glitserid turi** | **Tuzilish formulasi** | **Nomlanishi** |
|---|---|---|
| Monoglitseridlar | $HOCH_2CHCH_2OCOR^1$<br>\|<br>$OH$<br>$HOCH_2CHCH_2OH$<br>\|<br>$OCOR^2$ | α-stearin<br><br>β-palmitin |
| Diglitseridlar | $R^1COOCH_2CHCH_2OCOR^2$<br>\|<br>$OH$<br>$HOCH_2CHCH_2OCOR^2$<br>\|<br>$OCOR^3$ | α-stearin- α'-palmitin<br><br>α-stearin- β-laurin |
| Triglitseridlar | $R^1COOCH_2CHCH_2OCOR^3$<br>\|<br>$OR^2$<br>$R^1COOCH_2CHCH_2OCOR^2$<br>\|<br>$OR^1$<br>$R^2COOCH_2CHCH_2OCOR^2$<br>\|<br>$OR^3$ | α-stearin- β-palmitin-α'- laurin<br>α,β-stearin-α'-palmitin<br><br>α,α'-palmitin-β-laurin |

Ba'zi xollarda glitseridlarni nomlash murrakab efirlarni nomlagandek nomlanadi.

$$H_3C(CH_2)_{14}(O)CO—CH_2CHCH_2–OC(O)(CH_2)_{14}CH_3$$
$$|$$
$$OC(O)–(CH_2)_{14}CH_3$$

Propantriil-1,2,3-trigeksadekanoat

Murakkabroq nomlanishni ko'rib chiqamiz:

$$H_3C(O)CO—CH_2\overset{1}{C}H\overset{2}{C}H_2–OC(O)(CH_2)_2CH_3$$
$$|$$
$$OC(O)(CH_2)_{15}CH_3$$

2-(butanoiloksi)-1-[(etanoiloksi)metil]-1-(geptadekanoiloksi)etan

Quyida ba'zi karbon kislota xosilalarini ko'rib chiqamiz.

**Nitrillar**

Ular karboksil guruhidagi karbonil guruhi kislorodi va gidroksil guruhlar uch valentli azotga almashingan xosila. Ularni yana sinil kislotasi (tsianid) murakkab efiri deb xam qarash mumkin.

Trivial nomentklatura asosida nomlansa **nitril** suffiksi mos kislota nomiga qo'shilib yoziladi: $CH_3C{\equiv}N$ sirka kislota nitrili, atsetonitril.

Agar uni sinil kislotasi (tsianid) murakkab efiri deb xam qarasak, unda radikal nomiga **–tsianid** suffiksi qo'shiladi: $CH_3C{\equiv}N$ metiltsianid.

Sistematik nomenklaturasiga asosan esa mos uglevodorod nomiga – **nitril** suffiksi qo'shiladi: $CH_3CH_2CH_2C{\equiv}N$ butannitril.

Agar uni uglevodoroddagi vodorod atomi CN-guruhga almashgan xosila deb qaralsa, unda **tsiano-**, **ditsiano-** va x.k. perefiks qo'llanilladi: $CH_3C{\equiv}N$ tsianometan, $CH_3CH_2CH_2C{\equiv}N$ tsianopropan.

$N{\equiv}C(CH_2)_4C{\equiv}N$ geksandinitril.

$N{\equiv}CCH_2COOH$ tsianosirka kislota

**Izotsianidlar (izonitrillar)**

Bu birikmalarni nomlashda radikal nomiga **–izotsianid** suffiksi qo'shilib nomlanadi: $CH_3CH_2N^+{\equiv}C^-$ etilizotsianid.

Bu birikmalarni **izotsiano-** perefiksini qo'llansaxam nomlash mumkin: $CH_3CH_2N^+{\equiv}C^-$ izotsianoetan.

**Kislota gidrazidi**

Bu birikmalarni nomlashda **–gidrazid** suffiksidan foydalansa xam bo'ladi: $CH_3CH_2C(O)NHNH_2$ propiongidrazid.

Agar u bir asosli karbon kislota xosilasi bo'lsa uni ya'na – **karbogidrazid** suffiksini ishlatgan xolda nomlash mumkin: $CH_3CH_2C(O)NHNH_2$ etankarbogidrazid.

**Kislota azidlari**

Bu birikmalar karbon kislota, gidroksil guruhi azidoguruh $-N{=}N^+{=}N^-$ ga almashingan xosilasi xisoblanib, **–azid** suffiksini qo'llab nomlaymiz: $CH_3CH_2C(O)N{=}N^+{=}N^-$ propanoilazid.

**Peroksikislotalar (kislota gidroperoksidlari)**

Tarkibida –COOOH guruh saqlagan birikmalar **peroksikislotalar** xisoblanadi. $CH_3CH_2COOOH$ peroksipropan kislota yoki peroksietankarbon kislota.

**Ikki asosli kislota galogenangidridi.**

$ClOC(CH_2)_5COCl$ geptandioildixlorid.

$CH_3OOC(CH_2)_5COCl$ metil-6-xlorformilgeksanoat.

**Gidroksikarbon (oksikarbon) kislotalar**

Tarkibida xam karboksil xam gidroksil guruh saqlagan uglevodorodlar girdoksikarbon kislotalar xisoblanadi.

| Birikma tuzilish Formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | Trivial | sistematik |
| **Bir asosli ikki atomli kislota** | | |
| $CH_2COOH$<br>$OH$ | Glikol kislota | Gidroksietan kislota |
| $CH_3CHCOOH$<br>$OH$ | Sut kislota | 2-gidroksipropan kislota |
| $CH_2CH_2COOH$<br>$OH$ | β-oksipropion kislota | 3-gidroksipropan kislota |
| $CH_2(CH_2)_2COOH$<br>$OH$ | γ-oksimoy kislota | 4-gidroksibutan kislota |
| **Bir asosli uch atomli kislota** | | |
| $CH_2CHCOOH$<br>$OH\ OH$ | Gliserin kislota | 2,3-digidroksipropan kislota |
| **Ikki asosli uch atomli kislota** | | |
| $HOOCCHCOOH$<br>$OH$ | Tartron kislota | Gidroksipropan dikislota |
| $HOOCCHCH_2COOH$<br>$OH$ | Olma kislota | Gidroksibutan dikislota |
| **Ikki asosli to'rt atomli kislota** | | |
| $OH$<br>$HOOCCHCHCOOH$<br>$OH$ | Uzum kislota | 2,3-digidroksibutan dikislota |
| **Uch asosli to'rt atomli kislota** | | |
| $COOH$<br>$HOOCCH_2CCH_2COOH$<br>$OH$ | Limon kislota | 3-gidroksi-3-karboksi-1,5-pentan dikislota |

**Oksokarbon kislotalar**

Tarkibida xam karboksil xam karbonil guruh saqlagan birikmalar girdoksikarbon kislotalar xisoblanadi.

| Birikmaning tuzilish formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | trivial | Sistematik |
| $\underset{\underset{O}{\|}}{C}HCOOH$ | Glioksal kislota | 2-oksosirka kislota |
| $\underset{\underset{O}{\|}}{C}HCH_2COOH$ | Formilsirka kislota | 3-oksopropion kislota |
| $CH_3\underset{\underset{O}{\|}}{C}COOH$ | Pirouzum kislota | 2-oksopropion kislota |
| $CH_3\underset{\underset{O}{\|}}{C}CH_2COOH$ | Atsetosirka kislota | 3-oksomoy kislota |
| $CH_3\underset{\underset{O}{\|}}{C}(CH_2)_2COOH$ | Levulin kislota | 4-oksovalerian kislota<br>4-oksopentan kislota |
| $HOOC\underset{\underset{O}{\|}}{C}COOH$ | Mezoksalev kislota | 2-oksopropan dikislota |
| $HOOC\underset{\underset{O}{\|}}{C}CH_2COOH$ | Qahrabosirka kislota | 2-oksobutan dikislota |

Oksokarbon kislotalarning **atsil** radikalini nomlashda trivial nomenklaturadan foydalaniladi.

$O{=}CHCO\text{-}$ glioksiloil

$HOOCC(O)CO\text{-}$ mezoksaloil

$CH_3C(O)CO\text{-}$ piruvoil

$\text{-}OCCH_2C(O)CO\text{-}$ oksalatsetil

$\text{-}OCC(O)CO\text{-}$ mezoksalil

$CH_3C(O)CH_2CO\text{-}$ atsetoatsetil

**Misollar.**

1. Butan kislotaning barcha izomerlarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**

Butan kislotada faqat 2 ta zanjir izomeriyasi mavjud.

| | |
|---|---|
| $CH_3\text{-}CH_2\text{-}CH_2\text{-}COOH$ | $CH_3\text{-}\overset{\overset{CH_3}{\vert}}{C}H\text{–}COOH$ |
| butan kislota<br>etilsirka kislota | izobutan kislota<br>dimetilsirka kislota |

2. Izopropilsirka kislotaning tuzilish formulalarini yozing va sistematik nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**

$$
\begin{array}{l}
\quad\;\; CH_3 \\
\quad\;\;\; | \\
\overset{4}{C}H_3-\overset{3}{C}H-\overset{2}{C}H_2-\overset{1}{C}OOH
\end{array}
$$

3-metilbutan kislota

**Topshiriqlar.**

1. Geksaning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
2. $C_5H_{11}Cl$ ning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
3. $C_5H_{11}OH$ ning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
4. 2-metoksi-3-metilbutaning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
5. Valerian aldegidning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
6. Kapron kislotaning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
7. Pimelin kislotaning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
8. Levulin kislotaning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
9. 4-gidroksibutan kislotaning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.
10. Kislota azidning barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang.

# III. To'yinmagan organik birikmalarni nomlash.

## III.1. Alkenlar
### Trivial nomenklatura

| | |
|---|---|
| $CH_2=CH_2$ | Etilen |
| $CH_2=CH_2-CH_3$ | Propilen |
| $CH_2=CH_2-CH_2-CH_3$ | α-Butilen |
| $CH_3-CH=CH-CH_3$ | β-Butilen |
| $CH_2=C-CH_3$<br>\|<br>$CH_3$ | Izobutilen |
| $CH_2=CH_2-CH_2-CH_2-CH_3$ | α-Amilen |
| $CH_3-CH=CH-CH_2-CH_3$ | β-Amilen |
| $CH_2=C=CH_2$ | Allen |

### Ratsional nomenklatura

Ratsional nomenklatura bo'yicha alkenlarni nomlashda etilen molekulasi nomi asos qilib olinadi. Etilendagi radikallarni biz grek xarfi bilan, agar radikallar bir tomonda yoki turli tomonda bo'lsa **simm.** yoki **nosimm.** old qo'shimcha bilan ko'rsatiladi.



α,α-dimetil etilen

(nosim.dimetil etilen)

$CH_3-CH=CH-CH_3$

α,β-dimetil etilen

(sim.dimetil etilen)



α-metil-β-izopropil etilen

(sim.metilizopropil etilen)

### Sistematik nomenklatura

Eng uzun uglerod zanjiri tanlab olinadi va uglerod atomlari qo'sh-bog' yaqin tomondan raqamlanadi. Alkanlardagi ohirgi **-an** qo'shimchasini **–en** ga o'zgartiriladi. Agar birikma ikki va undan ortiq qo'sh-bog' saqlasa unda **–adien** (alkadien), **-atrien** (alkatrien) va h.k. kabi suffikslar ishlatiladi.

$\overset{4}{C}H_3-\overset{3}{C}H_2-\overset{2}{C}H=\overset{1}{C}H_2$ — buten-1

$\overset{1}{C}H_3-\overset{2}{C}H=\overset{3}{C}H-\overset{4}{C}H_3$ — buten-2

$\overset{1}{C}H_3-\overset{2}{C}H=\overset{3}{C}H-\overset{4}{C}(CH_3)(\underset{5}{C}H_2-\underset{6}{C}H_3)-CH_3$ — 4,4-dimetilgeksen-2

$CH_3-CH_2-\overset{2}{C}(=\overset{1}{C}H_2)-\overset{3}{C}H_2-\overset{4}{C}H(CH_3)-\overset{5}{C}H_3$

2-etil-4-metilpenten-1

$\overset{1}{C}H_3-\overset{2}{C}H=\overset{3}{C}H-\overset{4}{C}H=\overset{5}{C}H-\overset{6}{C}H_2-\overset{7}{C}H_3$

2,4-geptadien

Radikal xolda kelgan bitta qo‘shbog‘li uglevodorod radikalini nomlashda –**enil**, ikkita qo‘shbog‘li uglevodorod radikalini nomlashda – **dienil** suffiksidan foydalaniladi. Radikallarni raqamlashda ochiq valentli uglerodga 1 raqamini qo‘yib raqamlanadi.

| | | |
|---|---|---|
| $H_3\overset{3}{C}-\overset{2}{C}H=\overset{1}{C}H-$ | $\overset{4}{C}H_3-\overset{3}{C}H=\overset{2}{C}H-\overset{1}{C}H_2-$ | $\overset{4}{C}H_2=\overset{3}{C}H-\overset{2}{C}H=\overset{1}{C}H-$ |
| 1-propenil | 2-butenil | 1,3-butadienil |
| $CH_2=CH-$ | $CH_2=CH-CH_2-$ | $CH_3-\underset{\vert}{C}=CH_2$ |
| vinil | allil | izopropenil |

Ikki valentli radikal bo‘lsa, unda radikal nomiga **en** qo‘shiladi (**-enilen, -dienilen**).

$-\overset{5}{C}H_2-\overset{4}{C}H(CH_2CH_2CH_3)-H\overset{3}{C}=\overset{2}{C}H-\overset{1}{C}H_2-$

4-propil-2-pentenilen

| | |
|---|---|
| $-CH_2CH=CH-$ | $-CH_2-CH=CH-CH_2CH_2-$ |
| propenilen | 2-pentenilen |

**Misollar.**

1. Butenning barcha izomerlarini yozing va sistematik nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**

$CH_2{=}CH{-}CH_2{-}CH_3$ — buten-1

$CH_3{-}CH{=}CH{-}CH_3$ — buten-2

$CH_3{-}\underset{}{\overset{CH_3}{\overset{|}{C}}}{=}CH_2$ — 2-metilpropen

2. sim.Dietil etilenning tuzilish formulasini yozing.

**Yechish:**

$$C_2H_5{-}CH{=}CH{-}C_2H_5$$



Z- yoki sis-izomeri



E- yoki trans- izomeri

**Topshiriqlar.**

1. Geksening barcha izomerlari formulalarini yozing va turli nomenklaturada nomlang. Geometrik izomerlarini sis- trans va Z, E-nomenklaturada nomlang.

2. Geptadienning struktura va fazoviy tuzilish formulalarini yozing va nomlang.

## III.2. Alkinlar.

### Ratsional nomenklatura

Ratsional nomenklatura bo‘yicha alkinlarni nomlashda asetilen nomi asos qilib olinadi.

$HC{\equiv}C{-}CH_2{-}CH_3$ — etilasetilen

$CH_3{-}C{\equiv}C{-}CH_3$ — dimetilasetilen

### Sistematik nomenklatura

Eng uzun uglerod zanjiri tanlab olinadi va uglerod atomlari uchbog‘ yaqin tomondan raqamlanadi. Alkanlardagi ohirgi **-an** qo‘shimchasi **–in** ga o‘zgaradi. Agar ikki va undan ortiq uchbog‘ saqlasa unda **–adiin** (alkadien), **-atriin** (alkatrien) va h.k. kabi suffikslar ishlatiladi.

$\overset{1}{H}\overset{}{C}{\equiv}\overset{2}{C}{-}\overset{3}{C}H_2{-}\overset{4}{C}H_3$ — butin-1

$\overset{1}{C}H_3{-}\overset{2}{C}{\equiv}\overset{3}{C}{-}\overset{4}{C}H_3$ — butin-2

$$\overset{1}{C}H_3{-}\overset{2}{C}{\equiv}\overset{3}{C}{-}\overset{4}{C}{\equiv}\overset{5}{C}{-}\overset{6}{C}H_2{-}\overset{7}{C}H_3$$

2,4-geptadiin

Uglerod zanjirlarida ham qo'shbog', ham uchbog' mavjud **bo'lganda** uglerod atomlarini raqamlash bog' yaqin tomonidan raqamlanadi. Agar raqamlashda tanlash imkoni bo'lsa ham, u qo'sh bog' yaqin tomondan boshlab raqamlanadi. Xar ikkala xolda xam oldin qo'sh bog' saqlagan uglerod atomi ko'rsatiladi.



4-metilgeksen-1-in-5



geksadien-1,3-in-5



geksen-3-in-1



5-etinil-1,3,6-geptatrien,
5-vinilgeptadien-1,3-in-6



4-vinilgepten-1-in-5

Tarmoqlangan to'yinmagan atsiklik uglevodorodlar – bu birikmalar o'zida eng ko'p qo'sh va uch bog'larga ega bo'lgan tarmoqlanmagan uglevodorodlarning xosilalari sifatida qaraladi.

Agar eng ko'p karrali bog'lari bo'lgan uglerod zanjiri bir nechta bo'lsa, eng uzun uglerod zanjirlari tanlab olinadi. Bunday uzun uglerod zanjirlari bir nechta bo'lsa, qo'sh bo'i ko'p bo'lgan zanjir tanlanadi.



3,4-dipropil-1,3-geksadien-5-in



5,5-dimetil-1-geksen



5-etinil-1,3,6-geptatrien



4-vinil-1-gepten-5-in

Radikal xolda kelgan uchbog‘li uglevodorod radikalini nomlashda – **inil**, ikkita uchbog‘li uglevodorod radikalini nomlashda **–diinil** suffiksidan foydalaniladi. Radikallarni raqamlashda ochiq valentli ugledorga 1 raqamini qo‘yib raqamlanadi.

| | | |
|---|---|---|
| $H\overset{2}{C}\equiv\overset{1}{C}-$ | $H\overset{3}{C}\equiv\overset{2}{C}-\overset{1}{C}H_2-$ | $H\overset{5}{C}\equiv\overset{4}{C}-\overset{3}{C}H=\overset{2}{C}H-\overset{1}{C}H_2-$ |
| etinil | 2-propinil | 2-penten-4-inil |

**Misollar.**

1. Butinining barcha izomerlarini yozing va sistematik nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**

| | |
|---|---|
| $HC\equiv C-CH_2-CH_3$ | $CH_3-C\equiv C-CH_3$ |
| butin-1 | butin-2 |

2. Geksen-3-in-1ning tuzilish formulalarini yozing.

**Yechish:**

$\overset{1}{C}H\equiv\overset{2}{C}-\overset{3}{C}H=\overset{4}{C}H-\overset{5}{C}H_2-\overset{6}{C}H_3$

**Topshiriqlar.**

1. Geptining barcha izomerlari formulalarini yozing va xar xil nomenklaturada nomlang.
2. Tarkibida 1 ta qo‘sh bog‘, 1 ta uch bog‘ bo‘lgan 7 ta uglerodli uglevodorodlarning tuzilish formulalarini yozing va nomlang.

## III.3. Galogenli birikmalar.

### Ratsional nomenklatura

To'yinmagan galogen birikmalarni *radikal-funksional* nomenklaturada nomlashda 1-jadvaldan foydalaniladi.

| | | |
|---|---|---|
| $CH_2{=}CH{-}CH_2{-}Cl$ | $CH_3{-}CH{=}CH{-}Cl$ | $CH_2{=}C(Cl){-}CH_3$ |
| propen-2-il-1xlorid, allilxlorid | propen-1-il-1xlorid | izopropenilxlorid |

### Sistematik nomenklatura

Sistematik nomenklatura bo'yicha nomlashda uglerod zanjiri qo'shbog' yoki uchbog' tomondan yoki unga yaqin joydan raqamlanadi.

| | |
|---|---|
| $\overset{1}{C}H_2{=}\overset{2}{C}H{-}\overset{3}{C}H_2{-}\overset{4}{C}H_2Cl$ | $\overset{4}{C}H_3{-}\overset{3}{C}H_2{-}\overset{2}{C}H{=}\overset{1}{C}HCl$ |
| 4-xlorbuten-1 | 1-xlorbuten-1 |

## III.4. Spirtlar

To'yinmagan spirtlarni ratsional nomenklaturada nomlashda xam 1-jadvaldan foydalaniladi.

Spirtlarni sistematik nomenklaturada nomlashda uglerod zanjirini OH-funksional guruxi yaqin tomondan raqamlanadi.

| | |
|---|---|
| $\overset{4}{C}H_2{=}\overset{3}{C}H{-}\overset{2}{C}H_2{-}\overset{1}{C}H_2OH$ | $\overset{4}{C}H_2{=}\overset{3}{C}H{-}\overset{2}{C}H(OH){-}\overset{1}{C}H_3$ |
| buten-3-ol-1 | buten-3-ol-2 |

## III.5. Oddiy efirlar

$CH_3CH_2OCH{=}CH_2$

etoksietilen

viniletil efir

$CH_2{=}CH{-}CH_2{-}O{-}CH_2{-}CH_2{-}CH_3$

Alliloksipropan,

allilpropil efir

**Misollar.**

1. 3-xlorbuten-1ning tuzilish formulasini yozing.

**Yechish:**



2. Quyidagi moddani sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.



**Yechish:**



2-metilbuten-3-ol-1

**Topshiriqlar.**

1. Allilpropil efirning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.

2. Tarkibida 5 ta uglerod, 1 ta qo'sh bog' va 1 ta brom bo'lgan birikma formulalarini yozing va nomlang.

## III.6. Aldegid va ketonlar.

### Trivial nomenklatura



Kroton aldegid



Akrolein

### Ratsional nomenklatura

Ratsional nomenklatura bo'yicha nomlashda qo'shbog' yoki uchbog' joylashgan uglerodlar orasi grek harfi bilan ko'rsatiladi.



α-propilidensirkaaldegid



β-etilidenpropionaldegid

### Sistematik nomenklatura

Sistematik nomenklaturada nomlashda raqamlash karbonil gurux tomondan boshlanadi.



3-metilpenten-3-al

O‘zak – **pent-**, to‘yinmaganlik darajasi – **en**, bosh (asosiy) funksional guruh qo‘shimchasi **–al**, yon zanjirdagi guruh **–3–metil**.

To‘liq nomi **3-metil-penten-3-al.**



penten-4-on-2



3-vinil-2-gepten-6-inal



5-(1,3-butadienil)-2-geptendial



3-allil-2,4-pentandion

**Misollar.**

1. Kroton aldegidni sistematik nomenklaturada nomlang.

**Yechish:**



buten-2-al

2. Quyidagi moddani sistematik nomenklatura bo‘yicha nomlang.



**Yechish:**



penten-3-on-2

**Topshiriqlar.**

1. 2-metilpenten-3-alning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.

2. Tarkibida 6 ta uglerod atomi bo‘lgan etilen qatori ketonlarining formulalarini yozing va nomlang.

## III.7. Karbon kislotalar

| **Formulasi** | To‘yinmagan **karbon kislotaning nomlanishi** | |
|---|---|---|
| | **Trivial nomenklatura** | **O‘rinbosarli nomenklatura** |
| $CH_2=CH–COOH$ | Akril kislota | Propen kislota |
| $CH_2=C(CH_3)–COOH$ | Metakril kislota | 2-metilpropen kislota |
| $CH_2=CH–CH_2–COOH$ | Vinilsirka kislota | Buten-3 kislota |
|  | Kroton kislota | trans-buten-2 kislota |
|  | Izokroton kislota | sis-buten-2 kislota |
| $HC\equiv C–COOH$ | Propiol kislota | Propin kislota |
| $CH_3–C\equiv C–COOH$ | Tetrol kislota | Butin-2 kislota |

### Ratsional nomenklatura

Ratsional nomenklatura bo‘yicha nomlashda qo‘shbog‘ yoki uchbog‘ joylashgan uglerodlar orasi grek harfi bilan ko‘rsatiladi.

$\overset{\gamma}{C}H_3–\overset{\beta}{C}H=\overset{\alpha}{C}H–COOH$ — α-etilidensirka kislota

$\overset{\gamma}{C}H_2=\overset{\beta}{C}H–\overset{\alpha}{C}H_2–COOH$ — α-vinilsirka kislota

**Bir asosli to‘yinmagan karbon kislota atsil radikali**

| **Radikalning tuzilish formulasi** | **Nomlanishi** | |
|---|---|---|
| | **trivial** | **sistematik** |
| $H_2C=CHCO-$ | Akroil | Propenoil |

| | | |
|---|---|---|
| $H_2C=C-CO-$<br>$\quad\quad\;\, \vert$<br>$\quad\quad CH_3$ | Metakriol | 2-metilpropenoil |
| $H_3C \quad\quad\; H$<br>$\quad C=C$<br>$H \quad\quad\;\; CO-$ | Krotonoil | Trans-2-butenoil |
| $H \quad\quad\;\; H$<br>$\quad C=C$<br>$H_3C \quad\; CO-$ | Izokrotonoil | Sis-2-butenoil |
| $H_3C(CH_2)_7-CH$<br>$\quad\quad\quad\quad\quad \Vert$<br>$-OC(CH_2)_7-CH$ | Oleil | Sis-9-oktadetsenoil |

**To'yinmagan ikki asosli karbon kislotalar**

| Formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | Trivial nomenklatura | O'rinbosarli nomenklatura |
| $HOOC-CH$<br>$\quad\quad\;\; \Vert$<br>$HOOC-CH$ | Malein kislota | Tsis-butendi kislota |
| $HC-COOH$<br>$\Vert$<br>$HOOC-CH$ | Fumar kislota | Trans-butendi kislota |
| $HOOC-C-CH_3$<br>$\quad\quad\;\; \Vert$<br>$HOOC-CH$ | Mezakon kislota | Tsis-metilbutendi kislota |
| $HOOC-C-CH_3$<br>$\quad\quad\;\; \Vert$<br>$HC-COOH$ | Tsitrakon kislota | Trans-metilbutendi kislota |

**Ikki asosli to'yinmagan karbon kislota atsil radikali**

| Radikalning tuzilish formulasi | Nomlanishi | |
|---|---|---|
| | trivial (ratsional) | sistematik |
| $-OC-CH$<br>$\quad\quad\;\; \Vert$<br>$-OC-CH$ | Maleoil | Tsis-butendioil |
| $HC-CO-$<br>$\Vert$<br>$-OC-CH$ | Fumaroil | Trans-butendioil |
| $-OC-C-CH_3$<br>$\quad\quad\;\; \Vert$<br>$-OC-CH$ | Mezakonoil | Tsis-metilbutendioil |
| $-OC-C-CH_3$<br>$\quad\quad\;\; \Vert$<br>$HC-CO-$ | Tsitrakonoil | Trans-metilbutendioil |

**Misollar.**

1. Penten-1ning barcha izomerlar formulalarini yozing va ratsional nomenklatura bo‘yicha nomlang.

**Yechish:**

$CH_2=CH-CH_2-CH_2-CH_3$ — penten-1, propiletilen

$CH_3-CH=CH-CH_2-CH_3$ — penten-2, α-metil-β-etiletilen

$\quad CH_3$
$CH_2=C-CH_2-CH_3$

2-metilbuten-1, α-metil-α-etiletilen

$\qquad\qquad\quad CH_3$
$CH_2=CH-CH-CH_3$

3-metilbuten-1, izopropiletilen

$\qquad\qquad\quad CH_3$
$CH_3-CH=C-CH_3$

2-metilbuten-2, α,α, β,-trimetiletilen

2. 3-metilbuten-2 kislotani tuzilish formulasini yozing.

**Yechish:**

$\qquad CH_3$
$CH_3-C=CH-COOH$

**Topshiriqlar.**

1. 4,5-dimetilgeksen-2 ning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.
2. 4-metilgeksen-1-in-5 ning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.
3. 3-xlorbuten-1 ning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.
4. Penten-4-ol-1 ning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.
5. Pentoksietilenning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.
6. 2-metilpenten-3-al ning barcha izomerlari formulalarini yozing va nomlang.

# IV. Sikloalkanlar, ansambllar, spiranlar, ko‘priksimon sikloalkanlar, terpenlar.

## IV.1. Alisiklik uglevodorodlar





siklopropan 1-metil-2-izopropilsiklopropan siklopentan



1-siklobutil-3-siklogeksilbutan



2-siklopenten-1-il



2,4-siklopentadien-1-il



Siklopentiliden



2,4-siklogeksadien-1-iliden



1,3-siklopentilen



3-siklogeksen-1,2-ilen



siklogeksadien-1,3

Tetrametilsiklogeksan tipidagi uglevodorodlar. Bu tipdagi monosiklik terpen uglevodorodlari siklogeksan, siklogeksen va siklogeksadien hosilalari sifatida nomlanadi:



1,1,2,3-tetrametil-siklogeksan



1,2,3,3-tetrametil-siklogeksen-1

## IV.2. Xalqalari bir-biri bilan bog'langan bisiklik birikmalar (ansamblli xalqalar)

Bunday birikmalardagi uglerod atomlari har bir xalqa uchun, xalqalar bog'langan uglerod atomidan boshlab aloxida raqamlanadi. Ikkinchi xalqadagi uglerod atomlari shtrixli raqamlar bilan raqamlanadi.

Xalqalar bir xil bo'lsa xalqa radikali oldiga bi- old qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan:



1,1'-bisiklopropil



1,1'-bisiklobutil

Xalqalar bir xil bo'lmasa kichik xalqa katta xalqaning o'rinbosari sifatida olinadi. Asosiy xalqa sifatida katta xalqa olinadi va uglerod atomlari xalqalar bog'langan uglerod atomlaridan boshlab raqamlanadi, kichik xalqa uglerod atomlari shtrixli raqamlar bilan raqamlanadi.

Masalan:



1-tsiklopropilsiklopentan



1-tsiklobutilsiklogeksan

Bir-biriga bog'langan xalqalar ko'p bo'lsa, uchta xalqa uchun **ter-**, to'rtta xalqa uchun **kvater-**, beshta xalqa uchun **kvinki-**, oltita xalqa uchun **seksi-**, yettita xalqa uchun **septi-**, sakkizta xalqa uchun **okti-**, to'qqizta xalqa uchun **noni-**, o'nta xalqa uchun **detsi-** old qo'shimchalar ishlatiladi.

Masalan:




1,1':3',1"-tersiklogeksan

### IV.3. Spiranlar

Spirobog‘ ikkita xalqa uchun umumiy, yagona bo‘lgan uglerod atomi bilan hosil bo‘ladi. Bu umumiy atom spiro atom deyiladi. Spiro atomlarning soniga qarab monospiro-, uchspiro- va x.k. birikmalar bo‘ladi. Spirouglevodorodlarni ikki xil usul bilan nomlash mumkin.

1. Monospirouglevodorodlar (bitta spiro atom tutuvchi) xuddi shuncha uglerod atomlari bo‘lgan alkan nomining oldiga spiro- so‘zi qo‘shiladi. O‘rta qavslarda kattalashib boruvchi raqamlar bilan har bir xalqadagi spiro atom bilan bog‘langan uglerod atomlarining soni ko‘rsatiladi, bunda qavs spiro- so‘zi va uglevodorod nomining o‘rtasiga qo‘yiladi. Spiro sistemadagi uglerod atomlarini raqamlash kichik xalqadan boshlanib markazdagi spiro atomi bilan tugaydi.



spiro[3.4]oktan



spiro[4.5]dekan

2. Agar spirobog‘ bilan ikkita turli (bir xil bo‘lmagan) xalqalar bog‘langan bo‘lsa spiro birikmaning nomida avval katta xalqaning keyin kichik xalqaning nomi keltiriladi.

Misol:



siklogeksanspirosiklobutan;
spiro[3.5]nonan



siklogeptanspirosiklopentan;
spiro[4.6]undekan

## IV.4. Ko'priksimon sikloalkanlar

Ko'priksimon alisiklik uglevodorodlarga tarkibida molekula turli qismlarini bog'lab turuvchi "ko'prik" – valent bog', atom yoki tarmoqlanmagan uglerod atomlarining zanjiri bo'lgan bi-, tri- va polisiklik uglevodorodlar kiradi. Ko'prik orqali bog'langan ikkita uchlamchi uglerod atomlari xalqalarni bog'lovchi atomlar deyiladi.

Ko'priksimon bisiklik strukturalar Bayer sistemasi bo'yicha nomlanadi.

1. To'yingan ko'priksimon bisiklik uglevodorodlar shunday sondagi uglerod atomlari bo'lgan alkanlarning hosilalari sifatida qaraladi. Alkanning nomi oldiga bisiklo- so'zi qo'shilib o'rta qavs ichiga shifr qo'yiladi. Shifrdagi sonlar kichrayib borish tartibida ikkita uchlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan uchta har-bir ko'prik xalqasidagi uglerod atomlari sonini ko'rsatadi.

Sistema uglerod atomlari birinch bo'g'in atomidan boshlab eng uzun yo'l bilan ikkinchi bo'g'in atomiga, keyin birinchi bo'g'indan qisqaroq yo'l bilan va nixoyat eng qisqa yo'l bilan raqamlanadi.

Misol:



bisiklo[1.1.0]butan



bisiklo[3.2.1]oktan

Keyingi misolda xalqa uglerod atomlarini raqamlashdagi eng uzun yo‘l-1,2,3,4,5, qisqaroq yo‘l-5,6,7,1 va eng qisqa yo‘l -1,8,5.



bisiklo[4.3.2]undekan

Eng uzun yo‘l-1,2,3,4,5,6, qisqaroq yo‘l-6,7,8,9,1 va eng qisqa yo‘l-1,10,11,6.

2. Ko‘priksimon uglevodorodlar sikloalkanlar va to‘yinmagan monosiklik uglevodorodlar uchun bayon qilingan tartibga binoan nomlanadi. Agar raqamlashda tanlash mumkin bo‘lgan xollarda eng kichik raqam karrali ( ya’ni qo‘sh yoki uchbogv saqlagan) bog‘li uglerod atomiga beriladi.



bisiklo[2.2.1]gepten-2



bitsiklo-[4,4,0]-dekan



bitsiklo-[2,2,2]-oktan



bitsiklo-[3,2,1]-oktan

**Bisiklik sistema turi**

| Umumiy sikl uglerod atomi miqdori | Sistema tipi |
|---|---|
| 0 | Xalqalari bir-biri bilan bog‘langan bitsiklik birikmalar (ansamblli xalqa) |
| 1 | Spirouglevodorodlar, spiroalkanlar (spiranlar) |
| 2 | Kondensirlangan xalqali bisiklik sistema |
| 3 va ko‘rop | Ko‘priksimon siklik sistema |

## IV.5. Terpenlar

Terpenlar IYuPAK nomenklaturasi qoidalarida ilgaridan qabul qilingan qoidalarga muvofiq aloxida nomlanadi.

**Atsiklik terpenlar.** Atsiklik terpen uglevodorodlari boshqa to‘yinmagan atsiklik uglevodorodlar uchun qabul qilingan qoidalar bo‘yicha nomlanadi.

Misol:



7-metil-3-metilen-1,6-oktadien

**Tsiklik terpenlar.** Monotsiklik va bitsiklik terpenlarning maxsus nomenklaturasiga quyida keltirilgan struktura turlari asos qilib olingan. Bunda formulalar, maxsus nomlar va raqamlash qoidalari berilgan. Kamfan va bornilan nomlar o‘rniga bornan nomi kiritilgan. Terpenlarning asosiy turlari va uglerod atomlarini nomerlash tartibi:



mentan



tuyan



karan




pinan




bornan

**Monotsiklik terpenlar. Mentan turi.** Bu turdagi monosiklik uglevodorodlarni (orto-, meta- va para- izomerlar) mentan, menten, mentadien va x.k. deb nomlanadi va mentan uchun qabul qilingan tartibda raqamlanadi. Bu uglevodorodlarning hosilalari yuqorida keltirilgan qoidalarga muvofiq nomlanadi.

Misol:



p-mentan



p-menten-1

**Terpenlarning ratsional va trivial (qavsda) nomlanishiga misollar**

| Terpenning tuzilish formulasi | Nomlanishi | Terpenning tuzilish formulasi | Nomlanishi |
|---|---|---|---|
|  | 1-menten |  | 1,8-mentadien<br>$\Delta^{1,8}$-mentadien<br>(limonen) |

| | | | |
|---|---|---|---|
|  | 1,3-mentadien<br>$\Delta^{1,3}$-mentadien<br>(α-terpinen) |  | 1,4(8)-mentadien<br>$\Delta^{1,4(8)}$-mentadien<br>(terpinolen) |
|  | 1(7),3-mentadien<br>$\Delta^{1(7),3}$-mentadien<br>(β-terpinen) |  | 1,5-mentadien<br>$\Delta^{1,5}$-mentadien<br>(α-fellandren) |
|  | 1,4(5)-mentadien<br>$\Delta^{1,4(5)}$-mentadien<br>(γ-terpinen) |  | 1(7),2-mentadien<br>$\Delta^{1(7),2}$-mentadien<br>(β-fellandren) |
|  | 3-mentanol<br>(mentol) |  | 3-mentanon<br>(menton) |

**Bitsiklik terpenlar.** Karan, pinan va bornan sklet formulasiga ega bo‘lgan bitsiklik terpen uglevodorodlari mos ravishda quyidagicha nomlanadi:

Karan, karen, karadien va x.k.

Pinan, pinen, pinadien va x.k.

Bornan, bornen, bornadien va x.k.

Ularning raqamlanishi yuqorida keltirilgandek.




2-karen (karen-2)




2(10),3-pinadien




2-pinen (pinen-2)

|  |  |  |
|---|---|---|
| 2-bornen (bornen-2) | 2-oksibornan | 2-oksobornan (kamfora) |

**Bitsiklik terpenlarning nomlanishi**

| Terpenning tuzilish formulasi | Nomlanishi | Terpenning tuzilish formulasi | Nomlanishi |
|---|---|---|---|
|  | Tuyan, 4-metil-1-(1-metiletil)bitsiklo-[3.1.0]-geksan |  | Bornan (kamfan), 1,7,7-trimetilbitsiklo-[2.2.1]-geptan |
|  | Karan, 3,7,7-trimetil-bitsiklo-[4.1.0]-geptan |  | Pinan, 2,6,6-trimetilbitsiklo-[3.1.1]-geptan |



Kamfen
2,2-dimetil-3-metilbitsiklo-[2.2.1]-geptan

